

O'RTA OSIYO ALLOMALARI FAOLIYATIDA G'OYAVIY-SIYOSIY

*Harbiy ta'lim fakulteti
maxsus tayyorgarlik sikl o'qituvchisi*

*Harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich
talabasi **Jumayev Qodirjon Jasur O'g'li***

Maqolada O'rta Osiyo allomalarining faoliyati va ijodi orqali yoshlarda g'oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish muammolari atroflicha tahlil takomillashtirishda allomalarimiz durdona asarlari zaruriy ahamiyat kasb etishi va oila davrasida g'oyaviy-siyosiy madaniyatni yoshlar ongiga singdirib borish va shu asosida ta'lim-tarbiya berish borasidagi ilmiy yondashuvlar tahlil etilgan.

Donishmand xalqimiz hikmatlarida aytilganidek, yuksak g'oyaviy

Tayanch so'z va tushunchalar: g'oya, siyosat, madaniyat, mutafakkir, ijtimoiy-siyosiy, qadriyatlar, an'ana, bilim, komil inson, mafkura, immunitet, oila,

Идейно-политические взгляды на культуру в деятельности ученых Центральной Азии

В статье подробно анализируются проблемы формирования идейно-политической культуры среди молодежи посредством деятельности и творчества ученых Центральной Азии. В совершенствовании системы

формирования идейно-политической культуры молодежи важное значение имеют шедевры наших ученых и научные подходы, позволяющие привить идейно-политическую культуру молодежи в семейном кругу и обеспечить на ее основе воспитание.

Как сказано в мудрости нашего мудрого народа, без высоких идеальных целей трудно воспитать совершенного человека. Также подчеркивается значение идейно-политической культуры в процессе воспитания молодежи.

Основные слова и понятия: идея, политика, культура, мыслитель, общественно-политические, ценности, традиции, знания, совершенный человек, идеология, иммунитет, семья, вопросы образования.

Ideological and political views on culture in the activities of Central Asian scientists

The article analyzes in detail the problems of forming ideological and political culture among young people through the activities and creativity of Central Asian scientists. In improving the system of forming ideological and political culture of young people, the masterpieces of our scientists and scientific approaches are of great importance, allowing to instill ideological and political culture in young people in the family circle and to ensure education on its basis.

As it is said in the wisdom of our wise people, without high ideal goals it is difficult to raise a perfect person. The importance of ideological and political culture in the process of educating young people is also emphasized.

Key words and concepts: idea, politics, culture, thinker, socio-political values, traditions, knowledge, perfect person, ideology, immunity, family, educational issues.

K

i

r

i

s

h

1

degan fikrlarining o‘ziyoq yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda O‘rta Osiyo mutafakkirlari merosi, ularning ilg‘or fikrlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega ekanligini, ularni o‘rganish oila ostonasidan boshlanishi tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e‘lon qilindi va mamlakatimizda yoshlar ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

A

d

a

b

i

y

o

t

l

a

r

t

a

h

l

i

l

i

v

^a Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: «Sharq», 1998. –6-b.

² Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qat‘iyat bilan davom ettirish yo‘lida. T. 21. – T.: «O‘zbekiston», 2013. -9-b.

d

a

ahamiyatini o'rganish va ko'rsatib berish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Chunki O'rta Osiyo mutafakkirlarining g'oyaviysiyosiy madaniyatni tarbiyalash haqidagi fikrlari, o'g'itlari shunday kuchga egaki, ular yoshlar qalbida insoniylik urug'larining unib chiqishi, katta hayot yo'liga olib chiqishi, o'z mustaqil fikriga ega bo'lishiga yordam beradi, ma'naviy kuch-quvvat beradi. Xalqiga va qarindosh-urug'lariga qo'ldan kelgan barcha yaxshiliklarni qilish, ular hurmatini joyiga qo'yish kabi insoniylik fazilatlarini shakllantiradi. Bu esa imonli, e'tiqodli, g'ururli, odobli, g'oyaviy-siyosiy madaniyatga ega bo'lgan shaxsni voyaga

Shuning uchun biz uchun qadrli bo'lgan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ulug' mutafakkirlarning g'oyaviy qarashlari va qadriyatlaridan mustaqil yurtimiz istiqlolini mustahkamlashda, yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda, ta'lim-tarbiya jarayonida keng

G'oyaviy-siyosiy madaniyatni yoshlar ongiga singdirish ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotimizning muhim shartiga aylanmoqda.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda:

«Oldimizga qo'ygan olijanob maqsad-muddaolarimizga yetish, eski mafkuraviy asoratlardan batamom xalos bo'lish, g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, begona va yot g'oyalarning xurujidan himoyalanih, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan har tomonlama barkamol, komil insonlarni voyaga yetkazish zarurati xalqimiz va jamiyatimiz manfaatlariga mos yangi mafkurani shakllantirishni taqozo etmoqda»³. Ana shu hayotiy zarurat yoshlarimizda oiladan boshlab g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, ma'rifatli kishilarni tushunamiz. Ongli, bilimli odamni oldi-qochdi gaplar bilan aldab

³Karimov I.A.Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T. 9. - T.: «O'zbekiston», 2001.136-b.

bo‘lmaydi. U har bir narsani aql, mantiq tarozisiga solib ko‘radi. O‘z fikr-o‘yi, xulosasini mantiq asosida qurgan kishi yetuk odam bo‘ladi.

Ulug‘ mutafakkirlarning asarlari ma’nomazmunini anglash yoshlarimizga O‘zbekiston taraqqiyot yo‘lining milliy-madaniy negizlari, xususiyatlarini to‘g‘ri tushunish va shu asosda kelajakka ishonch hissini shakllantirishga xizmat qiladi. Yoshlarda bunyodkorlik g‘oyasiga «zid» bo‘lgan yot va begona, zararli «vayronkor» g‘oyalardan saqlanishga, unga nisbatan fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan javob berish, unga nisbatan doimo tayyor bo‘la olish tuyg‘usini shakllantiradi.

Islom Karimov milliy mafkura va milliy g‘oya haqidagi fikrlari amalga oshirilayotgan yangilanish va taraqqiyot siyosatining maqsadi axloqiy jihatdan mustahkam oila maqomidagi adolatli, demokratik, huquqiy jamiyatni shakllantirishdan iborat ekanligini, milliy g‘oya, milliy mafkura nimalarni o‘zida mujassamlantirishini va qanday talablarga javob berishi kerakligini quyidagicha ifodalaydi: «... Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak»⁴.

Millat tarbiyasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb masala bo‘lib kelgan. Sharq mutafakkirlari farzand tarbiyasiga alohida e’tibor berib kelganlar. O‘rta Osiyo mutafakkirlari o‘z asarlarida insoniylik, vatanparvarlik g‘oyalarini tarannum etib, xalqni oriflik, fozillik, komillik darajasiga ko‘tarishga chorlaganlar. Biz Amir Temur hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyatini o‘rganish jarayonida yoshlar ongida g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish mamlakatning oldida turgan ulug‘, bunyodkorlik ishlari, undan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlarning erkin va farovon hayotga erishishi, ozod va obod Vatan

⁴Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7.– T.: «O‘zbekiston», 1999–87-b.

qurish yoʻlida har bir kishi uchun harakat yoʻnalishi boʻlishga qaratilganligining guvohi boʻldik.

Amir Temur oʻgʻitlari yoshlar tarbiyasida erkin fikrni uygʻotish va fikr erkinligini kafolatlab berish, oʻziga ishonch, oʻzgalar fikrini tinglash, eshitish va aytishga imkoniyat yaratadi. Har bir kishi oʻzi yashayotgan jamiyat, mamlakat yoki davlatning maqsadini, uni ifoda etadigan gʻoyalarini bilishi, aniq tasavvur etishi lozim. Shundagina bu maqsadlar uning ong va tafakkuridan joy oladi. Yoki shunchaki joy olib qolmasdan, asta-sekin unga nisbatan ishonch, eʼtiqod paydo boʻladi. Ishonch, eʼtiqod shunday narsaki, usiz inson oʻz yoʻli, maqsad va manfaatlarini koʻra olmaydi. U qancha mustkakkam boʻlsa, bu gʻoya yoki maqsad yoʻlida oʻzini bagʻishlab, faoliyatini unga mos tarzda koʻradi, undan chekinish hollarini esa qabul qila olmaydi. Gʻoya, maqsadlar har bir inson xatti-harakati, faoliyati bilan mushtarak tarzda uygʻunlashib boradi. Jamiyatning oʻz-oʻzini tashkil etishga, insonlar, jamiyat aʼzolari, millat, xalqni birlashtirish, uyushtirishga xizmat qiladi. Aniq maqsadlar sari yoʻnaltiradi.

«Men hayotim mobaynida besh qoidaga qatʼiy eʼtiqod qoʻydim va hamishaligʻ ularga amal qildim. Ular ushbulardir:

Olloh – ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sigʻinsang istagan murodu maqsudiga yetkazadi.

Tafakkur – fikrlash va mushohada qobiliyati, quvvayi hafizasini kuchli inson har qanday mushkulu mushkulodni oson qilish yoʻlini topa oladi.

Qilich – ul yigitning yoʻldoshi, el-yurt osoyishtaligining posboni, har qanday dushmani mahv etish qurolidir.

Imon – ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turguvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urugʻlari, elu xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi.

Kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idrokning, ilmu donishning asosidir, hayotni o‘rgatuvchim murabbiydir»⁵.

Ko‘rinib turibdiki, buyuk bobokalonimiz Amir Temur o‘z o‘gitlarida insonlar o‘rtasidagi do‘stlik va birodarlikka alohida ahamiyat berib, odamlarni bir-birlari bilan do‘st-inoq bo‘lib yashashga, pastkashlikka olib keladigan adovatni yo‘qotishga chaqiradi. Imon-e’tiqodni, bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalarini ulug‘laydi, aql idrok, tafakkur ilmu donish asosi ekanligi ta’riflaydi.

Abu Nasr Farobiy O‘rta Osiyodan chiqqan buyuk fan arboblardan sanaladi. Farobiyning katta xizmatlaridan biri uning ideal jamiyat haqidagi o‘ylari va bu haqida yozgan asarlaridir. Farobiy insonning g‘oyaviy siyosiy madaniyatini shakllantirishda bunyodkorlik kuchini yuksak baholaydi, uning ta’kidlashicha, aql-idrok, mehnat, bilim, qonun ustuvorligi, adolatlilik insonni ijtimoiy jihatdan faollashtiradi. Inson bilimi orqaligina o‘z maqsadiga erisha oladi. «U ikki xil davlat boshqaruvi mavjud ekanligi haqida gapirib, bir xilida odamlar ustidan hokimlar turadilar, boshqasida qonunlar hokimlarga ham taalluqli... Farobiy boshqa bir foydali g‘oya – hokimiyat haqida eslatib o‘tadi. Ilohiy qonunni idrok etishga tayyorgarlik ko‘rish va quyidagi yana ikki g‘oyani amalga oshirish uchun hokimiyatga muhtojlik paydo bo‘ladi. Bu g‘oyalardan biri – sa’yharakati, hunari va maqsadlari (adolatli) hokimlarga qarshi bo‘lgan yovuz niyatli odamlardan shaharni tozalashdir. Boshqa bir g‘oya – pand-nasihati yo‘li bilan farovonlikka intilish va odamlarni ilohiy qonunni osonlikcha va quvonch bilan qabul qilishlarini ta’minlashdir»⁶.

Farobiy o‘z asarlarida insoniylikning 12 ta xislat-fazilatini sanab o‘tadi: «sog‘lomlik, farosatlilik, kuchli xotira, zukkolik, notiqlik, ma’rifatga intilish,

⁵ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -37-b.

⁶ Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -37-b.

nafsni jilovlash, haqiqatni sevish, oriyatlilik, moldunyo ketidan quvmaslik, adolatparvarlik, qat'iyatlilik va jasurlik»⁷.

Ta'kidlash joizki, Farobiy e'tirof etgan xislat-fazilatlar bugungi kunda yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda, inson haq-huquqlari va erkinliklarini ta'minlashda, o'zligimizni anglash, har bir xonadonda tinchlik, osoyishtalik, barqarorlikni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

O'zbek adabiyoti va madaniyati tarixidagi eng katta durdona asarlardan biri – bu buyuk mutafakkir, shoir Alisher Navoiyning «Xamsa» asari bo'lib, unda insonni ulug'lash, xalq baxt saodati uchun kurashish g'oyasi yetakchilik qiladi. Xamsaning birinchi dostoni «Hayratul-abror» falsafiy-diniy xarakterga ega bo'lib, unda yetuk shaxsning yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab, kamtarlik, qanoat, rostgo'ylik, insof, adolat, bag'rikenglik kabi fazilatlarini ta'riflanib, ruhiy kamolot yo'llari tahlil etilgan.

Navoiy o'z davrida komil insonlarni ahli ma'ni kishilardir deb bilgan. Ahli ma'ni – bu fikrli odamlardir. Fikrlash haqiqatni anglashdir. Hamma narsa to'g'risida mustaqil mushohada yuritish demakdir. Ahli ma'nilik tufayli inson odam va olam taqdiriga vijdon bilan qarash qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday fazilatga ega bo'lgan kishilarning tafakkur qilishi kengdir. Chunki ularda diyonat, adolat, imon, ishq, dard tuhfalari kamol topgan bo'ladi. Navoiyning fikricha, ahli ma'ni kishilar ma'naviyati, dunyoqarashi, tafakkur olami yetuk shaxslardir.

Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad Beruniyning inson haqidagi g'oyalarini o'rganish, baxt-saodat yo'lida olib borgan ishlarini yosh avlodga tushuntirish g'oyaviy madaniyatimizni shakllantirishning asosiy omilidir. Uning «Geodeziya», «Hindiston», «Mineralogiya», «Qonuni mas'udiy» kabi asarlari haqida ma'lumotlar berish yoshlarda kelajak uchun

⁷ Xolbekov A., Jumayev R., Umarova N. va boshqalar. Boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. -48-b.

yuksak mas'uliyat hissini qaror toptirishga, ular madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, fizika, kimyo, biologiya, dorishunoslik, ruhshunoslik, fiziologiya, falsafa, estetika, axloqshunoslik kabi ko'plab fanlarning yetuk bilimdoni, aqlzakovat va yuksak ma'naviyat bobida komillik darajasiga yetgan ulug' inson bo'lgan. Uning yaratgan asarlari nafaqat O'rta Osiyoda, balki Sharq va Yevropa mamlakatlarida ham hurmat bilan tilga olinadi. Ibn Sinoning ta'limtarbiyaga oid «Risola fi ilm al-axloq» («Axloqqa oid risola»), «Risola fi al-ahd» («Burch haqida risola»), «Risola fi tazkiyat an-nafs» («Nafsni pokiza tutish to'g'risida risola»), «Siyosat al-badan» («Badanni boshqarish»), «Kitob al-insof» («Adolat haqida kitob»), «Tadbir al-manozil» («Turar joyni boshqarish choralari»), «Salamon va Ibsol» kabi bir qancha tarbiyaviy asarlari mavjud. Abu Ali ibn Sinoning barcha risolalarida adolatlilik, saxiylik, shijoat, sabr, muloyimlik, iffat, qanoat, mehr-muhabbat, sofdillik, kamtarlik, insonparvarlik kabi fazilatlarga ta'rif berilgan. Ibn Sino o'z hayoti va faoliyatida doimo ezgulikka intilgan va ezgulik g'oyalarini talqin qilgan.

Aql va adolat, baxt-sodat, farovonlik haqida gapirib, do'stlik, halollik, rostgo'ylik, kamtarlik, odillik kabi insoniy xislatlarni shaxs kamolotida muhim o'rin egallashini uqtirgan Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» dostoni ham inson hayoti va faoliyatining birlamchi asosi ta'lim-tarbiya va bilim egallash deb biladi. U g'oyaviy tarbiyani (fikir tarbiyasini) faqatgina ilm-fan va ma'rifat bilan sog'lomlashtirish mumkinligini ta'kidlaydi. Yusuf Xos Hojib bilimni zulmat ichidagi nurafshon mash'alaga o'xshatadi. Uning fikricha, nutq madaniyati shaxsning bilimdonlik va ma'naviy komillik darajasini belgilab beradi, insonni ulug'laydi. Yusuf Xos Hojib har bir so'zimiz uylab mushohada qilib aytilgan, keskir va aniq bo'lishi kerak, aks holda noo'rin aytilgan so'z zarar keltirishi mumkinligini ta'kidlab shunday yozadi: «So'zingga ehtiyot bo'l, ketmasin boshing, Tilingga ehtiyot bo'l sinmasin tishing». Mutafakkir «Qutadg'u bilig» dostonida hokim bilan xalq o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga ham

boʻlganligi yovuzlik har doim magʻlubiyatga uchrashini his etishlarida, bugungi kunda oʻsib ulgʻayotgan yoshlar madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat

Oʻtmish mutafakkirlarining barkamol, komil inson haqidagi fikrlari, insonparvarlik, bunyodkorlik gʻoyalari bugun ham gʻoyaviysiyosiy madaniyatimizni shakllantirishda qimmatli noyob xazinadir. Shunday ekan, ulardan oiladan boshlab taʼlim-tarbiyani takomillashtirishda, farzandlarimizning

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Karimov I.A. Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishning qatʼiyat bilan davom ettirish yoʻlida. T. 21. – T.: «Oʻzbekiston», 2013.
Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz masʼulmiz. T.9. – T.: «Oʻzbekiston», 2001.

3. Karimov I.A. Biz kelajagimizni oʻz qoʻlimiz bilan quramiz. T.7. – T.: «Oʻzbekiston», 1999.

4. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yoʻlida

5. Amir Temur oʻgʻitlari. – T.: «Navroʻz», 1992. -16-18-b.

6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi

«Qutadgʻu bilig». Qadimiy hikmatlar toʻplami. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1987. -312-b.

8. Kaykovus. Qobusnoma. – T.: «Oʻqituvchi», 2006. -122-b.

iyosiy yoʻnalishlari. – T.: Gʻafur Gʻulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,